



# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARНИNG JISMONИY RIVOJLANISHI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

*Axmedova Nilufarxon Burxonjon qizi*

*FarDU 4-bosqich talabasi*

## Kirish

Maktabgacha yosh — bolalikning jadal o'sish, harakat faolligi va fiziologik shakllanish bosqichidir. Bu davrdagi jismoniy rivojlanish nafaqat bola salomatligining, balki uning kelajakdagi ijtimoiy va intellektual muvaffaqiyatining poydevori hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar bu jarayonni ilmiy asosda chuqr o'rganishni taqozo etmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishini to'g'ri yo'lga qo'yish, ularning har tomonlama barkamol voyaga yetishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chunki aynan shu davrda organizmda asosiy harakat ko'nikmalari shakllanadi, mushaklar faoliyati kuchayadi va asosiy reflektor tizimlar mustahkamlanadi. Bolaning tabiiy ehtiyojlariga mos bo'lgan jismoniy faollik ularning ruhiy va aqliy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogika va psixologiya fanida bolalar jismoniy rivojlanishini monitoring qilish, sog'lom turmush tarziga bo'lgan qiziqishni shakllantirish hamda mos sharoitlar yaratish dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Bu esa tadqiqotlarning ilmiy asosda olib borilishini, amaliyatga yo'naltirilgan yangi yondashuvlarni joriy etishni talab etadi.

## Adabiyotlar tahlili

Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy rivojlanishiga irsiy omillar, oziqlanish, ekologik muhit va pedagogik yondashuvlarning ta'sirini alohida ta'kidlagan. Aripov X. va Yunusova G. bolalar harakat faolligining pasayishi muammosini milliy o'yinlar orqali hal qilishga urg'u bergen. J.Piaje va Vygotskiylarning ishlari esa harakat va o'yin orqali bola rivojining asosiy mexanizmlarini ochib beradi.



## Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot Farg‘ona viloyatining Buvayda tumanidagi 26-maktabgacha ta’lim muassasasi misolida olib borildi. Asosiy metodlar: antropometriya, nazorat sinovlari, pedagogik kuzatuv, statistik tahlil.

## Natijalar va muhokama

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, jismoniy faollik darajasi yuqori bo‘lgan bolalarda bo‘y va vazn ko‘rsatkichlari, koordinatsiya va chidamlilik darajasi yuqori bo‘lib, ular ijtimoiy faolligi va o‘ziga bo‘lgan ishonch bilan ajralib turadi. Harakat yetishmovchiligi esa aksincha, stress, psixomotor sustkashlik va ijtimoiy moslashuv muammolariga olib kelgan. Bundan tashqari, faol harakatlarda ishtirok etgan bolalarning muvozanatni saqlash, tezlik va harakat aniqligi bo‘yicha test natijalari yuqori bo‘ldi. Bu ularning markaziy asab tizimi va mushak-faoliyatining uyg‘un rivojlanganligini ko‘rsatadi. Jismoniy faollikka muntazam jalb etilgan bolalarda tashabbuskorlik, guruhda ishslash ko‘nikmasi va muloqot madaniyatining shakllangani kuzatildi. Shuningdek, ota-onalar va tarbiyachilar bilan suhbatlar asosida aniqlanishicha, jismoniy faol bolalar sog‘lom ovqatlanish tartibiga, uyqu-gigiyena me’yorlariga rioya qilishga moyil bo‘lishadi. Bu esa bolaning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiyaning bevosita ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, jismoniy faollik bilan shug‘ullanuvchi guruhdagi bolalarning bo‘y va vazn o‘rtacha ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan ishonchli farq qiladi ( $p < 0,05$ ). Bu esa maktabgacha yoshdagি bolalar salomatligi va psixofiziologik rivojlanishida harakat faoliyatining hal qiluvchi o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

## Xulosa va takliflar

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha yoshdagи bolalarning jismoniy rivojlanishi ularning umumiy sog‘ligi, psixologik holati va ijtimoiy faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Faol harakatlarga boy muhitda tarbiyalanayotgan bolalar koordinatsion qobiliyatları, chidamlılıgi, ijtimoiy faolligi va o‘ziga ishonchi bilan ajralib turadi. Harakat faolligi yetishmasligi esa bolalarda psixomotor sustkashlik, stressga moyillik, past ijtimoiy moslashuv va salbiy



emotsional holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

-Har bir maktabgacha ta’lim muassasasida bolalarning jismoniy rivojlanishini muntazam monitoring qilish tizimi joriy etilishi kerak. Bu tizim antropometrik o‘lchovlar, harakat ko‘nikmalarini baholash va sog‘lomlik ko‘rsatkichlari asosida shakllanishi lozim.

-Harakatli o‘yinlar va jismoniy mashqlar asosida tuzilgan mashg‘ulotlar har haftalik pedagogik rejalgarda majburiy tarzda kiritilishi va ularning sifati tizimli ravishda nazorat qilinishi lozim.

-Oilalar va tarbiyachilar uchun bolalarda sog‘lom jismoniy rivojlanishni ta’minalashga qaratilgan metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilishi va ular asosida seminar-treninglar o‘tkazilishi maqsadga muvofiq.

-Harakat faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan sog‘lom muhit (ochiq havoda o‘yin maydonchalari, xavfsiz jihozlar va sport anjomlari) bilan ta’minalash davlat dasturlari asosida kengaytirilishi lozim.

-Bolaning yoshiga mos individual jismoniy yuklama me’yorlari ishlab chiqilib, pedagoglar tomonidan har bir bolaga mos holda qo‘llanilishi ta’minalishi kerak.

-Kelajakda jismoniy rivojlanish va psixologik xususiyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqurroq o‘rganish uchun maktabgacha ta’lim tizimida ko‘proq kompleks tadqiqotlar olib borilishi zarur.

-Har bir MTMda bolalarning jismoniy rivojlanishini monitoring qilish tizimi joriy etilishi kerak.

-Harakatli o‘yinlar asosida tuzilgan mashg‘ulotlar haftalik rejalgarda kiritilishi lozim.

-Oilalar va tarbiyachilar uchun metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilishi zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. “MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TA’LIM VA TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH BO‘YICHA DAVLAT TALABLARI”



- TOSHKENT: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI MAKTABGACHA TA'LIM AGENTLIGI, 2020.
- 2. YUSUPOVA M.X., XOLBOYEVA M.M. MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI. – TOSHKENT: FAN VA TEXNOLOGIYA, 2020.
- 3. QODIROVA M.M. MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHIGA DOIR PEDAGOGIK ASOSLAR. – TOSHKENT: "ILM ZIYO", 2021.
- 4. KARIMOVA Z.X. JISMONIY TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI. – TOSHKENT: O'QITUVCHI, 2019.
- 5. RAXMATULLAYEVA N.S. MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALAR JISMONIY RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. // PEDAGOGIK IZLANISHLAR JURNALI. – 2022. – №2. – B. 45–49.
- 6. [WWW.LEX.UZ](http://WWW.LEX.UZ) – O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUN HUJJATLARI MILLIY BAZASI.